

2025-yil I chorak davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi HISOBOT

Vazirlikka hisobot davrida korrupsiya faktlari hamda manfaatlar to‘qnashuviga oid kelib tushgan 11 ta murojaat qonunchilik doirasida atroflicha o‘rganib chiqildi. Jumladan:

- 5 ta murojaat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi;
- 4 ta murojaat tegishliligicha bo‘yicha tashkilotlarga yuborildi;
- 1 ta murojaat o‘z tasdig‘ini topmadi;
- 1 ta murojaat vazirlik rahbariyatining ko‘rsatmasiga asosan ko‘rmasdan qoldirildi.

Shundan 2 ta murojaat yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi xodimlari tomonidan xizmat tekshiruvi o‘tkazildi. Jumladan:

- “Ohangaron-Dalvarzin” ITB boshlig‘i hamda xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, boshqarma boshlig‘i I.G‘ofurovning o‘z xohishi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish bo‘yicha arizasi olinib, huquqiy baho berish uchun Toshkent viloyati prokuraturasiga yuborildi;

- Sirdaryo-So‘x ITHB boshlig‘i hamda xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, qonuniy xulosa berish uchun Farg‘ona viloyati prokuraturasiga yuborildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplayens nazorati bo‘limi**